



## YURTIMIZDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA YARATILYOTGAN IMKONIYATLAR VAS SHART- SHAROITLAR.

Suyarova Fotima Sobirovna

jinoiy odil sudlov fakulteti 2kurs talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8375100>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-September 2023 yil  
Ma'qullandi: 23-September 2023 yil  
Nashr qilindi: 25-September 2023 yil

### KEYWORDS

*tadbirkorlik, subyektlari, subyektlarining prezumpsiyasi, halol raqobat, tadbirkorlik, tadbirkorlik vijdonliligi*

### ABSTRACT

*Yurtimizda yaqin yillar davomida tadbirkorlikni rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Albatta bu islohotlarni amalga oshirish uchun ko'plab qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinmoqda. Tadbirkorlik kodeksining qabul qilinishi bo'yicha ham qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda.*

Tadbirkorlik faoliyatiga yaratilyotgan imkoniyatlar va amalga oshirilyotgan islohotlar haqida bilib olish uchun avvalombor tadbirkorlik faoliyati tushunchasiga to'xtalib o'tsak.

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir<sup>1</sup>.

Bugungi kunda tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Har bir rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida hamda ijtimoiy hayotida tadbirkorlikning o'rni juda katta hisoblanadi. Chunki tadbirkorlik rivojlansa iqtisodiy sohada yangi banklar, korxonalar, tashkilotlar, aksiyadorlik jamiyatlari vuudga keladi va tovar xomashyo va pul munosabatlari rivojlanadi. Ijtimoiy sohada esa, yangi ish o'rinlari yaratiladi va aholining yashash darajasi yaxshilanadi. Albatta buni yaxshi tushungan davlatimiz tadbirkorlarga ko'plab shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin.

tadbirkorlik sohasida talab etiladigan 114 turdagi litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi;  
33 turdagi litsenziya va ruxsatnoma o'rniga xabardor etish tartibi joriy etildi;  
soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi;  
soliq tekshiruvlari turi 13 tadan 3 taga qisqartirildi;  
qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga kamaytirildi;  
ijtimoiy soliq stavkasi 25 foizdan 12 foizga tushirildi;  
3,5 ming turdagi tovarlar uchun import bojxona boji va 1,1 ming turdagi tovarlar uchun aksiz solig'i bekor qilindi;

<sup>1</sup> <http://lex.uz/docs/-2006789>

3 mingdan ziyod turdagi tovarlar uchun import bojxona bojlari keskin kamaytirildi. Bulardan tashqari:

1. 2021 yil 1 maydan boshlab, Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan Markaziy bank asosiy stavkasi 1,75 baravaridan oshmagan miqdorda foiz stavkasi bilan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga milliy valyutada beriladigan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun beriladigan kompensatsiyani, uning belgilangan miqdorlarini saqlab qolingan holda taqdim etish yo'lga qo'yildi.

2. Prezidentimizning 2020 yil 13 oktyabrdagi "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar hamda tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish orqali tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishni moliyaviy manba bilan ta'minlash maqsadlariga 100 million AQSH dollari ekvivalentida mablag' ajratish belgilab qo'yildi.

3. Prezidentimiz tomonidan 23.12.2023 yilda "Tadbirkorlar kunini belgilash to'g'risida"gi O'RQ-739-son<sup>2</sup> Qonun imzolandi

4. Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash, respublikaning eksport salohiyatini oshirish va innovatsiyalar joriy qilishda o'zining munosib hissasini qo'shayotgan biznes vakillarini rag'batlantirish, shuningdek, 2021-yil 20-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki, davlatimiz tadbirkorlarga keng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Bundandan tashqari yurtimizda tadbirkorlarning huquqiy jihatdan ham qo'llab quvvatlash maqsadida "tadbirkorlik kodeksi" qabul qilish bo'yicha loyiha ishlab chiqilmoqda. Albatta bu kodeksining qabul qilinishi tadbirkorlar va davlat o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni belgilab qo'yishga qaratilgan. Misol uchun Tadbirkorlik kodeksi loyihasining 5-moddasida tadbirkorlik faoliyatining asosiy prinsiplari belgilab qo'yilgan.

Tadbirkorlik faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik; tadbirkorlikning erkinligi; tadbirkorlik subyektlarining tengligi; halol raqobat; davlat, tadbirkorlik subyektlari va iste'molchilarning manfaatlari o'rtasidagi muvozanat; davlat organlari faoliyatining shaffofligi va axborotdan foydalanishning ochiqligi; tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligi; huquqbuzarliklar profilaktikasi ustuvorligi; tadbirkorlik subyektlarining vijdonliligi prezumpsiyasi; korrupsiyadan xolilik; tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish; tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga davlatning noqonuniy aralashishiga yo'l qo'ymaslik; norma ijodkorligida tadbirkorlik subyektlarining ishtiroki; tadbirkorlikning ijtimoiy mas'uliyatini rag'batlantirish; davlatning tadbirkorlik faoliyatida cheklangan tarzda ishtiroki; tadbirkorlik subyektlari huquqlarining ustuvorligi.

Ushbu kodeks loyihasidan oldin ham tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish bo'yicha "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonun ham bo'lgan ammo prinsiplar aniq belgilab qo'yilmagan edi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yurtimizda tadbirkorlik faoliyati qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Tadbirkorlar soni otib bormoqda va yangi ish

<sup>2</sup> [www.norma.uz](http://www.norma.uz)

o'rinlari yaeatilmogda. Statistika ma'lumotlarga qaraganda har yili yaratilyotgan yangi bo'sh o'tinlarining 90% i xususiy sektorga to'g'ri kelmoqda.

Bundan tashqari Tadbirkorlik kodeksi loyihasi qabul qilinishi tadbirkorlar uchun yana bir imkoniyat hisoblanadi. Chunki deganda ushbu kodeksda barcha huquq va majburiyatlar aniq qilib belgilab qo'yilgan. Bu esa noqonuniy vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi.

**Foydalanilgan manbalar:**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
3. [www.yangio'zbekiston.uz](http://www.yangio'zbekiston.uz)

